**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ-75-son qarori ijrosi yuzasidan MA’LUMOT**

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| **Qarorda belgilangan vazifalar bo‘yicha (Nazorat - Z.Ziyayev)** | | | | | |
| 1. | 1. Statistik kuzatuvlarni o‘tkazish va ko‘rsatkichlarni shakllantirish uslubiyotlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, sohada islohotlarni jadallashtirish hamda xalqaro tashkilotlar ishtirokida kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida Milliy statistika qo‘mitasi tuzilmasida “Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish” ofisi tashkil etilsin. | Milliy statistika qo‘mitasi tizimi tashkilotlarining amaldagi shtatlari doirasida Markaziy apparat tuzilmasida “Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish” ofisini tashkil etish va uni Milliy statistika qo‘mitasi raisining transformatsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosariga biriktirish. | 2025-yil 24-avgust | Z.Talipova, J.Shirinov, Transformatsiya ofisi | **Bajarilgan.** O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 5-martdagi 64-K-sonli buyrug‘i bilan Milliy statistika qo‘mitasi markaziy apparati tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan, ushbu tuzilmasida “Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish” ofisi tashkil etilgan. |
| 2. | 3. Belgilansinki:<br>(a) Transformatsiya ofisi shtat birliklari Milliy statistika qo‘mitasi tizimi tashkilotlarining amaldagi shtatlari doirasida shakllantiriladi;<br>(b) Transformatsiya ofisi faoliyatini muvofiqlashtirish ishlari Milliy statistika qo‘mitasi raisining transformatsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari tomonidan amalga oshiriladi;<br>(d) hududiy statistika organlari balansidagi tuman (shahar) bo‘limlari binolarini belgilangan tartibda sotishdan tushgan mablag‘lar statistika organlari hisobida qoldiriladi hamda sohaning strategik yo‘nalishlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. | “Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish” ofisini nizomi va lavozim yo‘riqnomasini ishlab chiqish va tasdiqlatilishini ta’minlash. | 2025-yil 24-avgust | Z.Talipova, J.Shirinov, Transformatsiya ofisi | **Bajarilgan.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora -tadbirlari to‘g‘risida” PQ-75-son qarorining 1-bandi bilan statistik kuzatuvlarni o‘tkazish va ko‘rsatkichlarni shakllantirish uslubiyotlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, sohada islohotlarni jadallashtirish hamda xalqaro tashkilotlar ishtirokida kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida Milliy statistika qo‘mitasi tuzilmasida “Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish” ofisi tashkil etildi. Shu munosabat bilan, topshiriq ijrosi yuzasidan Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 5-martdagi 64-K-sonli buyrug‘i qabul qilindi. Mazkur buyruq bilan Milliy statistika qo‘mitasi markaziy |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | apparati tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan, ushbu tuzilmasida “Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish” ofisi tashkil etilgan.<br>Transformatsiya ofisi shtat birliklari Milliy statistika qo‘mitasi tizimi tashkilotlarining amaldagi shtatlari doirasida shakllantirilgan. |
| 3. | 4. Quyidagilar:<br>(a) O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;<br>(b) O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;<br>(d) Respublika statistika kengashi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. | 1. Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tasdiqlangan tashkiliy tuzilma va Nizom asosida yuritilishini tashkil etish hamda tizim tuzilmalarini nizomlari va lavozim yo‘riqnomalarini qayta tasdiqlanishini tashkil etish. | 2025-yil 24-avgust | Z.Talipova, tegishli boshqarmalar boshliqlari | **Bajarilgan.**<br>Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 5-martdagi 64-K-sonli buyrug‘i qabul qilindi. Mazkur buyruq bilan Milliy statistika qo‘mitasi markaziy apparati tuzilmasi 1-ilovaga, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi 2-ilovaga, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalarining tuman, shahar bo‘linmalari namunaviy tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlangan.<br>Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 1-apreldagi 34-sonli buyrug‘i qabul qilindi. Mazkur buyruq bilan Milliy statistika qo‘mitasi hududiy statistika boshqarmalarining nizomlari tasdiqlangan. |
| | | 2. Respublika statistika kengashi faoliyatini tasdiqlangan Nizom asosida tashkil etish. | 2025-yil 24-avgust | Z.Talipova, tegishli boshqarmalar boshliqlari | **Bajarilgan.**<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-75-son qaroriga muvofiq Respublika statistika kengashi nizomi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PF-27-son Farmonining 1-ilovasiga muvofiq Respublika statistika kengashi tarkibi rasmiy tartibda tasdiqlandi. Ushbu xujjatlar Kengash faoliyatini ochiqligi va shaffofligini ta’minlash hamda amaliyotga tezkor tadbiq etish, mas’ullar faoliyatini muvofiqlashtirish va ish jarayonlarini samarali monitoring qilish maqsadida, qo‘mitaning rasmiy vebsahifasi www.stat.uz ga joylashtirildi. |
| 4. | 5. Milliy statistika qo‘mitasi tizimining Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan jami tuzilmalari boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 1 392 ta, shu jumladan, Milliy statistika qo‘mitasi raisi o‘rinbosarlari soni 3 ta etib belgilansin. Bunda:<br>(a) Milliy statistika qo‘mitasining markaziy apparati hamda hududiy bo‘linmalarining Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan jami 470 ta, shundan 330 ta boshqaruv xodimlari, 140 ta ishlab chiqarish xodimlari shtat birliklari maqbullashtirilayotganligi inobatga olinsin;<br>(b) maqbullashtirilayotgan shtat birliklari hisobidan bo‘shaydigan mablag‘lar Milliy | 1. Milliy statistika qo‘mitasi maqbullashtirilayotgan shtat birliklarini inobatga olib, Milliy statistika qo‘mitasi markaziy apparati tuzilmasi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo‘limlari namunaviy tuzilmalari, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash. | 2025-yil 24-aprel | Z.Talipova, J.Shirinov, tegishli boshqarmalar boshliqlari | **Bajarilgan.**<br>Milliy statistika qo‘mitasining markaziy apparati tuzilmasi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo‘limlari namunaviy tuzilmalari (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 5 martdagi 64-K buyrug‘iga 1-ilova), Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining tashkiliy tuzilmasi (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 6-martdagi 70-K buyrug‘iga 1-ilova) tasdiqlandi. |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | statistika qo'mitasi tizimidagi xodimlarning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) natijadorligidan kelib chiqib, ularni rag'batlantirishga yo'naltirilsin hamda keyingi yildan boshlab rag'batlantirish uchun ajratiladigan mablag'lar Milliy statistika qo'mitasi xarajatlarida alohida satrda aks ettirilsin. | 2. Milliy statistika qo'mitasi maqbullashtirilayotgan shtat birliklaridagi xodimlarni qonunchilikka muvofiq ogohlantirish va bo'shatilayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi xodimlarni ishga joylashtirish choralarini ko'rish. | 2025-yil 24-aprel | Z.Talipova, J.Shirinov, tegishli boshqarmalar boshliqlari | **Bajarilgan.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-75- son qaroriga binoan Statistika qo'mitasining markaziy apparati hamda hududiy bo'linmalarining 470 ta shtat birliklari maqbullashtirilayotganligi, ushbu topshiriqni bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan 2025-yil 6-martda qabul qilingan 66-k- son buyrug'ini inobatga olib, Mehnat kodeksining 165-moddasi birinchi qismi 1- bandi uchinchi xatboshisiga asosan 2025-yil 5-martdagi Ish beruvchining O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisiga Mehnat kodeksining 164-moddasiga ko'ra taqdim etilgan 01/1-23-13-41- son taqdimnomasi, Kasaba uyushmasi qo'mitasining 2025-yil 6-martdagi 51-sonli rozilik bayoniga asosan tuzilgan mehnat shartnomasini tegishli kompensatsiya va kafolatlarni qo'llagan holda shtat birliklaridagi xodimlar qonunchilikka muvofiq ogohlantirildi. Tizim bo'yicha ogohlantirish olgan jami 470 nafar |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | xodimlardan 158 nafar mehnatga layoqatli yoshdagi xodimlarni ishga joylashtirish choralari ko'rildi. |
| | | 3. Maqbullashtirilayotgan shtat birliklari hisobidan bo'shaydigan mablag'lar Milliy statistika qo'mitasi tizimidagi xodimlarning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) natijadorligidan kelib chiqib, ularni rag'batlantirishga yo'naltirish. | 2025-yil 24-aprel | Z.Talipova, J.Shirinov, tegishli boshqarmalar boshliqlari | **Bajarilgan.**<br>2025-yilga mo'ljallangan asosiy oylik samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) belgilangan vaqtida ishlab chiqilib, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi bilan birga ko'rib chiqildi. Tasdiqlandi. Maqbullashtirilayotgan shtat birliklari hisobidan bo'shaydigan mablag'lar iqtisod bo'lgandan so'ng rag'batlantirishga yo'naltirilishi belgilangan.<br>Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tizimida xodimlar faoliyatini asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash va rag'batlantirish tartibini joriy qilish maqsadida Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil 25-iyuldagi 75-sonli buyrug'i qabul qilinib, ijroga yo'naltirildi. |
| 5. | 6. Milliy statistika qo'mitasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda tizimdagi barcha bo'linmalarning | Tizimdagi barcha bo'linmalarning faoliyatini to'liq qamrab oluvchi 2025-yilga mo'ljallangan asosiy oylik | 2025-yil 24-mart | Z.Talipova, J.Shirinov, D.Zakirov, | **Bajarilgan.**<br>Tizimdagi barcha bo'linmalarning faoliyatini to'liq qamrab oluvchi |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | faoliyatini to'liq qamrab oluvchi 2025-yilga mo'ljallangan asosiy oylik **samaradorlik ko'rsatkichlarini** (KPI) tasdiqlasin. | **samaradorlik ko'rsatkichlarini** (KPI) tasdiqlash. | | tegishli boshqarmalar boshliqlari | 2025-yilga mo'ljallangan asosiy oylik samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) belgilangan vaqtida ishlab chiqilib, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi bilan birga ko'rib chiqildi. Tasdiqlandi. |
| 6. | 7. Milliy statistika qo'mitasi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo'limlari xodimlarining yagona tarif setkasi bo'yicha razryadlari 4, 5 va 6-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin. | Milliy statistika qo'mitasi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo'limlari xodimlarining belgilangan tarif setkasi bo'yicha razryadlari asosida shtat birliklarini tasdiqlash. | 2025-yil 24-mart | J.Shirinov, tegishli boshqarmalar boshliqlari | **Bajarilgan.**<br>Qo'mitaning 2025- yil 13-martdagi 76-k Buyrug'iga asosan Milliy statistika qo'mitasi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo'limlari xodimlarining belgilangan tarif setkasi bo'yicha razryadlari asosida shtat birliklari tasdiqlandi. |
| 7. | 8. Rasmiy statistika sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha "**Yo'l xaritasi**" 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. | Rasmiy statistika sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha "**Yo'l xaritasi**"da belgilangan vazifalarni o'z muddatida bajarilishini nazorat qilish. | Belgilangan muddatlarda | F.Berdibayev, tegishli boshqarmalar boshliqlari | **Bajarilmoqda.**<br>Qarorda belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha ma'lumotlar har oy yakuni bilan Vazirlar Mahkamasiga taqdim etib borilmoqda.<br>*(2025-yil 3-apreldagi 01/3-01-14-45-son, 6-maydagi 01/3-01-14-57-son, 4-iyundagi 01/3-01-14-73-son, 2-iyuldagi 01/3-01-14-89-son, 5-avgustdagi 01/3-01-14-104-son 5-sentabrdagi 01/3-01-14-114-son, 3-oktabrdagi 01/3-01-14-126-son, 3-noyabrdagi 01/3-01-14-134-son, 2-dekabrdagi 01/3-01-14-153-son xatlar).*<br>*(2026-yil 9-yanvardagi 01/3-01-14-4-son, 4-fevraldagi 01/3-01-1419-son xatlari.)* |
| 8. | 9. Milliy statistika qo'mitasi manfaatdor | Qonunchilik hujjatlariga ushbu | 2025-yil | V.To'xtayev, | **Bajarilgan.** |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin. | qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish. | 24-aprel | tegishli boshqarmalar boshliqlari | 2025-yil 23-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyati tashkil etilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Farmon loyihasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan. |
| **Rasmiy statistika sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI”** | | | | | |
| **Raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish yo‘nalishida (Nazorat – Z. Ziyayev)** | | | | | |
| 9. | 7-ilova 1-band. Statistik hisobotlarni to‘ldirish jarayonida real vaqt rejimida maslahatlar beruvchi beradigan sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan chat-bot AI ishlab chiqish. | 1. Sun’iy intellekt texnologiyalarini statistik hisobotlarni qabul qilish jarayonlariga joriy etish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish. | 2025-yil 25-sentabr | Sh.Odilov | **Bajarilgan.**<br>Belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli bajarish maqsadida, quyidagi ishlar amalga oshirilib kelinmoqda:<br>– 2024-yil 20-25-oktabr kunlari Singapurda axborot tizimlariga sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish va zamonaviy raqamli texnologiyalar sohasida ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish bo‘yicha o‘quv-tanishuv safari o‘tkazilgan. Yig‘ilishning asosiy maqsadi axborot tizimlariga sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish va zamonaviy raqamli texnologiyalar o‘rganish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Yig‘ilish davomida olingan bilim va ko‘nikmalar, sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish etishda yordam beradi. Shuningdek, ma’lumotlarni boshqarish ehtiyojlari, texnik tadbirlar va uslubiy imkoniyatlar o‘rganildi. Milliy statistika tizimiga |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | yangi texnologiyalarini joriy etish masalalari ko‘rib chiqilib, Singapur davlatining statistika sohasidagi tajribalaridan foydalanish orqali ma’lumotlarni tayyorlashda sifatni yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligi o‘rganildi.<br>– 2025-yil 3-5-iyun kunlari Tojikiston Respublikasining Dushanbe shahrida ham o‘tkazilgan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlarning milliy statistika xizmatlari faoliyatini axborot bilan ta’minlashni takomillashtirish bo‘yicha seminar bo‘lib o‘tdi. Mazkur seminar doirasida zamonaviy texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt (SI) vositalarini statistik amaliyotga tatbiq etish borasidagi ilg‘or yondashuvlar muhokama qilindi. Seminar ishtirokchilari milliy statistika tizimini sun’iy intellekt asosida transformatsiya qilish yondashuvlari hamda statistik jarayonlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali ularning aniqligi<br>va samaradorligini oshirish imkoniyatlari bilan tanishtirildi.<br>– 2025-yil 19–23 may kunlari BAA Federal raqobatbardoshlik va statistika markazi (FCSC) tajribasini o‘rganish maqsadida Dubay shahriga amalga oshirilgan tashrif doirasida Katta ma’lumotlar (Big Data) va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini qo‘llash |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | bo‘yicha FCSC tajribasi o‘rganildi;<br>– 2025-yil 24–23-may kunlari Koreya Respublikasi Statistika idorasi (KOSTAT) bo‘lib o‘tgan o‘rta darajadagi rahbar kadrlar uchun trening safarida axborot tizimlarida sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini qo‘llash bo’yicha tajriba almashinildi.<br>Yuqorida keltirilgan xalqaro va mintaqaviy tajribalarni o‘rganish natijasida sun’iy intellekt texnologiyalarini statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish jarayonlariga tatbiq etish bo‘yicha aniq yo‘nalishlar shakllantirildi. Ushbu tajriba asosida “Sun’iy intellekt texnologiyalarini statistik hisobotlarni qabul qilish jarayonlariga joriy etish ishlari amalga oshirildi. |
| | | 2. Statistika hisobotlarini onlayn tarzda taqdim etishning e-Stat 4.0 axborot tizimi uchun sun’iy intellekt (artificial intelligence) texnologiyasi asosida **“Maslahatchi” interaktiv xizmati** (chat-bot) modulini ishlab chiqish. | 2026-yil 26-yanvar | Sh.Odilov | **Bajarilgan.**<br>Mazkur vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash maqsadida, xalqaro tajriba o‘rganilib, Statistika hisobotlarini onlayn tarzda taqdim etishning e-Stat 4.0 axborot tizimi uchun sun’iy intellekt (artificial intelligence) texnologiyasi asosida “Maslahatchi” interaktiv xizmati (chat-bot) moduli ishlab chiqildi.<br>Ushbu axborot tizimining texnik topshirig‘i ishlab chiqilib, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda “Kiberxavfsizlik markazi” DUKning ekspertiza xulosalari olindi.<br>Belgilangan tadbirlarni amalga |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | oshirish natijasida, “Maslahatchi” interaktiv xizmati (chat-bot) moduli ishga tushirildi. |
| 10. | 7-ilova 2-band. “Hududlar statistikasi” axborot tizimini joriy etish. | 1. Statistika integrallashgan axborot tizimi negizida “Hududlar statistikasi” axborot tahlil modulining konsepsiyasini ishlab chiqish hamda unda joylashtiriladigan statistik ko‘rsatkichlarning ro‘yxatini shakllantirish. | 2025-yil 1-iyul | Sh.Odilov | **Bajarilgan.** Band ijrosi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan 2025-yil 23-iyunda 01/3-16-03-80-sonli axborot xati kiritildi. Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 23-iyundagi 62-sonli buyrug‘i bilan Statistika integrallashgan axborot tizimi negizida “Hududlar statistikasi” axborot tahlil modulining konsepsiyasi hamda unda joylashtiriladigan statistik ko‘rsatkichlarning ro‘yxati tasdiqlandi. Hujjatlar ilova qilinmoqda. |
| | | 2. “Hududlar statistikasi” axborot tahlil modulini ishga tushirish va unda ro‘yxatga muvofiq statistik ko‘rsatkichlarning e’lon qilib borilishini ta’minlash. | 2025-yil 25-dekabr | Sh.Odilov | **Bajarilgan.** Mazkur vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash maqsadida, Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 23-iyundagi 62-son buyrug‘i bilan Statistika integrallashgan axborot tizimi negizida “Hududlar statistikasi” axborot-tahlil modulini ishlab chiqish konsepsiyasi hamda unda aks ettiriladigan viloyat, tuman (shahar)lar kesimidagi natijadorlik ko‘rsatkichlari ro‘yxati tasdiqlandi.<br>Belgilangan tadbirlarni amalga oshirish natijasida, Statistika integrallashgan axborot tizimi negizida “Hududlar statistikasi” axborot-tahlil |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | moduli ishlab chiqildi va hudud.stat.uz manzilida ishga tushirildi. Mazkur modulda viloyat, tuman (shahar)lar kesimidagi tasdiqlangan natijadorlik ko‘rsatkichlari aks ettirildi. |
| 11. | 7-ilova 3-band. Tadbirkorlarga **“Biznes uchun statistika”** konsalting xizmatini tashkil etish. | 1. Tadbirkorlik sub’ektlari uchun maslahat va axborot-tahliliy ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha joriy etiladigan “Biznes uchun statistika” konsalting xizmatining konsepsiyasi va mazkur xizmatni ko‘rsatish tartibini ishlab chiqish. | 2025-yil 28-iyul | D.Zakirov, J.Shirinov | **Bajarilgan.**<br>Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 3-iyundagi 59-son buyrug‘i qabul qilindi.<br>Mazkur buyruq bilan “Biznes uchun statistika” konsalting xizmatining konsepsiyasi hamda “Biznes uchun statistika” konsalting xizmatini ko‘rsatish tartibi tasdiqlandi. |
| | | 2. “Biznes uchun statistika” konsalting xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha barcha darajadagi statistika organlari uchun o‘quv seminarlarini o‘tkazish. | 2025-yil avgust–oktabr | D.Zakirov, J.Shirinov | **Bajarilgan.**<br>Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan “Biznes uchun statistika” konsalting xizmatining konsepsiyasi hamda uni ko‘rsatish tartibi yuzasidan quyidagi bosqichlarda seriyali seminarlar tashkil etildi:<br>birinchi - Kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlari instituti binosida joriy yilning 18-iyul sanasida hududiy statistika boshqarmalari boshliqlari uchun;<br>ikkinchi - Milliy statistika qo’mitasi binosida joriy yilning 24-iyul sanasida hududiy statistika boshqarmalarining Buxgalteriya hisobi va moliyaviy ishlar bo'limi xodimlari uchun;<br>uchinchi - Toshkent shahar statistika boshqarmasi binosida joriy yilning 24-28-iyul sanalarida hududiy statistika |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | boshqarmalarining “Biznes uchun statistika” konsalting xizmatida ishtirok etuvchi xodimlari uchun.<br>Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 15-avgustdagi 211-K-son buyrug‘iga asosan, 18-avgustdan, 18-sentyabrga qadar hududiy statistika organlarida o‘quv smenarlar o‘tkazildi.<br>2025-yil 22-oktabrdagi 01/3-04-09-191-son xati O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etildi.<br>Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan “Biznes uchun statistika” konsalting xizmatining konsepsiyasi hamda uni ko‘rsatish tartibi yuzasidan 4 bosqichdan iborat seriyali seminarlar tashkil etildi.<br>Mazkur seminarlarda umimiy hisobda jami 580 nafar tizim xodimlari ishtirok etdi. Jumladan, barcha hududiy statistika boshqarmalari boshliqlari - 14 nafar, hududiy statistika boshqarmalarining Buxgalteriya hisobi va moliyaviy ishlar bo‘limi xodimlari - 14 nafar, hududiy statistika boshqarmalarining “Biznes uchun statistika” konsalting xizmatida ishtirok etuvchi xodimlari 55 nafar, barcha hududlarda sayyor o‘quv seminarlar “Biznes uchun statistika” konsalting xizmatida |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | ishtirok etuvchi xodimlari boshqarmaning bo‘limlari va tuman shahar statistika bo'limlari xodimlari - 497 nafar xodimlar ishtirok etdi. |
| | | 3. “Biznes uchun statistika” konsalting xizmatini ko‘rsatishni boshlash va uni tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida ommalashtirish. | 2025-yil 28-noyabr | D.Zakirov, J.Shirinov | **Bajarilgan.**<br>Qo‘mitaning 2025-yil 20-noyabrdagi 01/3-04-09-221-son xati O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etildi.<br>2025-yil 20-noyabr holatiga statistika organlari tomonidan “Biznes uchun statistika” konsalting xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha 18 367 ta tadbirkorlik subyektlari bilan ularga tushuntirishlar berish, tahliliy ma’lumotlar va statistik to‘plamlar taqdim etish bo‘yicha shartnoma asosida hamkorlik tashkil etildi.<br>Shuningdek, konsalting xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha statistika organlarining rasmiy veb-saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi telegram kanali va facebook sahifalarida 236 ta video roliklar joylashtirish orqali e’lonlar berildi, 5 645 ta tadbirkorlik subyektlariga flayer va bukletlar tarqatildi hamda 3016 ta tadbirkorlik subyektlariga hamkorlik qilish yuzasidan takliflar chiqarildi.<br>Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlariga konsalting xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida my.stat.uz |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | platforma ishlab chiqildi. Hozirgi kunda platforma test sinovidan o‘tkazilmoqda. |
| 12. | 7-ilova 4-band. Statistik ma’lumotlarning yangi manbalarini aniqlash va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish. | 1. “Elektron hukumat” tizimining Idoralararo integratsiyalashuv platformasidagi integratsiyalar (vazirlik va idoralardan olingan integratsiya servislari) ro‘yxatini Milliy statistika qo‘mitasiga taqdim etilishini ta’minlash. | Doimiy | X.Iskandarov, Sh.Odilov | **Bajarilgan.** “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” DMga “Elektron hukumat” tizimining Idoralararo integratsiyalashuv platformasidagi integratsiyalar ro‘yxatini Milliy statistika qo‘mitasiga 2025-yilning 7-apreliga qadar etishda amaliy yordam so‘rab, 2025-yil 26-mart kuni 01/-3-19-05-52 sonli xat yuborildi. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 8-avgust kunidagi 24-8/5577 sonli xati kelib tushdi. Unda Statistika integrallashgan axborot tizimi va “Raqamli hukumat” tizimi (Idoralararo integratsiyalashgan platformasi/Raqamli ma’lumotlar platformasi) axborot tizimi bilan elektron o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida texnologik yo‘riqnoma rasmiylashtirilganligi va unga muvofiq tegishli ma’lumotlar taqdim etilyotganligi ma’lum qilingan. |
| | | 2. “Elektron hukumat” tizimining Idoralararo integratsiyalashuv platformasidagi mavjud integratsiyalardan (vazirlik va idoralardan olingan integratsiya servislari) to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish imkoniyatini yaratish. | 2025-yil 25-dekabr | X.Iskandarov, Sh.Odilov | **Bajarilgan**. Mazkur topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida, Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan Milliy statistika qo‘mitasiga imzolangan texnologik yo‘riqnomaga muvofiq Idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali 110 ta servislarni taqdim etib kelinmoqda. |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| 13. | 7-ilova 5-band. Milliy statistika qo‘mitasi tizimida mavjud “fayervol” (firewall) qurilmalarining litsenziya muddatini uzaytirish. | “Fayervol” (firewall) qurilmalarining litsenziya muddatini uzaytirish choralarini ko‘rish va “O‘zbekistonda statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash” loyihasi doirasida xarid qilish ishlarini amalga oshirish. | 2025-yil 28-aprel | B.Imamov | **Bajarilgan**.<br>Mazkur topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida, Milliy statistika qo‘mitasi tizimida foydalanib kelinayotgan (2021 yil 6 sentabrda “MARS SOLUTION” MCHJsi bilan tuzilgan 21127.1.1 va 29380.1.1 shartnomalarga asosan xarid qilingan FORTIGATE 101F (2 ta) va 81F (15 ta)) “Fayervol” (firewall) qurilmalarining litsenziya muddatini uzaytirish choralari ko‘rildi.<br>Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-martdagi 113-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekistonda statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash” loyihasining Texnik-iqtisodiy asosida belgilangan “Qurilmalarni takomillashtirish va tarqatish amaliyoti” bo‘limining “Litsenziyalangan dasturiy ta’minot” bandiga asosan Milliy statistika qo‘mitasida axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash darajasini yanada oshirish va tizimning yuqori himoyalanganlik darajasini saqlash maqsadida, tizimda mavjud 17 dona “Fayervol” (firewall) qurilmalari 2025 yil 24 fevralda “MARS SOLUTION” MCHJsi bilan tuzilgan SSS/C3.1/RFQ/28-son shartnomaga asosan 3 yillik litsenziya xarid qilindi va tizimga joriy etildi.<br>Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Vazirlar |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Mahkamasi va Adliya vazirligiga 2025 yil 11 martda 01/3-17-04-13-son axborot xati kiritildi. |
| 14. | 7-ilova 6-band. Hududiy boshqarmalarni zamonaviy server qurilmalari bilan ta'minlash. | 1. Qo'shimcha server qurilmalarini xarid qilish bo'yicha loyiha hujjatlarini tayyorlash. | 2025-yil 25-dekabr | B.Imamov | **Bajarilgan.**<br>Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida, quyidagi bir qator ishlar amalga oshirildi:<br>**I.** Milliy statistika qo'mitasi Markaziy apparati tomonidan tizimdagi boshqarma va bo'limlarning zamonaviy AKT qurilmalar va dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlanishi bo'yicha Milliy statistika qo'mitasining 2025- yil 18- apreldagi 01/3-17-05-23-son topshirig'iga (1-ilova) asosan ehtiyoji o'rganildi va tegishli tartibda ko'rib chiqildi (2-ilova).<br>O'rganish natijasida, Milliy statistika qo'mitasi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti (keyingi o'rinlarda – Institut) uchun server qurilmasiga ehtiyoj (3-ilova) mavjudligi va Markaziy apparat uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi PQ-75-son qarorida belgilangan sun'iy intellektni joriy etish vazifalar ijrosini ta'minlash va hududiy statistika boshqarmalarining tegishli axborot resurslarini joylashtirish uchun server qurilmasi zarurligi aniqlandi.<br>**II.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi<br>PQ-75-son qarorida Milliy statistika qo'mitasi va Institutga yuklatilgan vazifalarni to'liq qamrab oladigan server |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | resurslarini ta’minlovchi server qurilmalariga texnik topshiriqlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi (4-5-ilovalar).<br>**III.** Milliy statistika qo‘mitasi tizimiga yuqorida ta’kidlab o‘tilgan zamonaviy server qurilmalari bilan ta’minlash ishlarini samarali tashkil etish hamda ilg‘or va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqsadida, “OMNI SYSTEM” MCHJsi bilan 2025- yil 12- noyabrda tuzilgan SSS/C3.1/RFQ/49-son shartnomaga asosan (6-ilova) 2 dona DELL PowerEdge R760 va DELL PowerEdge R770 rusumli server qurilmalari xarid qilindi va tizimga joriy etildi.<br>Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi va Adliya vazirligiga 2025 yil 9-dekabr 01/3-17-02-97-son axborot xati kiritildi. |
| | | 2. “O‘zbekistonda statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash” loyihasi doirasida xarid qilish ishlarini amalga oshirish. | 2025-yil 25-dekabr | B.Imamov | **Bajarilgan.**<br>Mazkur topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida, quyidagi bir qator ishlar amalga oshirildi:<br>**I.** Milliy statistika qo‘mitasi Markaziy apparati tomonidan tizimdagi boshqarma va bo‘limlarning zamonaviy AKT qurilmalar va dasturiy ta’minotlar bilan ta’minlanishi bo‘yicha Milliy statistika qo‘mitasining 2025- yil 18- apreldagi 01/3-17-05-23-son topshirig‘iga (1-ilova) asosan ehtiyoji o‘rganildi va tegishli tartibda ko‘rib chiqildi (2-ilova). |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | O‘rganish natijasida, Milliy statistika qo‘mitasi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti (keyingi o‘rinlarda – Institut) uchun server qurilmasiga ehtiyoj (3-ilova) mavjudligi va Markaziy apparat uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi PQ-75-son qarorida belgilangan sun’iy intellektni joriy etish vazifalar ijrosini ta’minlash va hududiy statistika boshqarmalarining tegishli axborot resurslarini joylashtirish uchun server qurilmasi zarurligi aniqlandi.<br>**II.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi<br>PQ-75-son qarorida Milliy statistika qo‘mitasi va Institutga yuklatilgan vazifalarni to‘liq qamrab oladigan server resurslarini ta’minlovchi server qurilmalariga texnik topshiriqlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi (4-5-ilovalar).<br>**III.** Milliy statistika qo‘mitasi tizimiga yuqorida ta’kidlab o‘tilgan zamonaviy server qurilmalari bilan ta’minlash ishlarini samarali tashkil etish hamda ilg‘or va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqsadida, “OMNI SYSTEM” MCHJsi bilan 2025- yil 12- noyabrda tuzilgan SSS/C3.1/RFQ/49-son shartnomaga asosan (6-ilova) 2 dona DELL PowerEdge R760 va DELL PowerEdge R770 rusumli server qurilmalari xarid qilindi va tizimga joriy etildi. |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi va Adliya vazirligiga 2025 yil 9-dekabr 01/3-17-02-97-son axborot xati kiritildi. |
| | | 3. Milliy statistika qo‘mitasi tizimida server qurilmalarini foydalanishga joriy etish. | 2025-yil 25-dekabr | B.Imamov | **Bajarilgan.**<br>Mazkur topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida, quyidagi bir qator ishlar amalga oshirildi:<br>**I.** Milliy statistika qo‘mitasi Markaziy apparati tomonidan tizimdagi boshqarma va bo‘limlarning zamonaviy AKT qurilmalar va dasturiy ta’minotlar bilan ta’minlanishi bo‘yicha Milliy statistika qo‘mitasining 2025- yil 18- apreldagi 01/3-17-05-23-son topshirig‘iga (1-ilova) asosan ehtiyoji o‘rganildi va tegishli tartibda ko‘rib chiqildi (2-ilova).<br>O‘rganish natijasida, Milliy statistika qo‘mitasi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti (keyingi o‘rinlarda – Institut) uchun server qurilmasiga ehtiyoj (3-ilova) mavjudligi va Markaziy apparat uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi PQ-75-son qarorida belgilangan sun’iy intellektni joriy etish vazifalar ijrosini ta’minlash va hududiy statistika boshqarmalarining tegishli axborot resurslarini joylashtirish uchun server qurilmasi zarurligi aniqlandi.<br>**II.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi<br>PQ-75-son qarorida Milliy statistika |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | qo‘mitasi va Institutga yuklatilgan vazifalarni to‘liq qamrab oladigan server resurslarini ta’minlovchi server qurilmalariga texnik topshiriqlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi (4-5-ilovalar).<br>**III.** Milliy statistika qo‘mitasi tizimiga yuqorida ta’kidlab o‘tilgan zamonaviy server qurilmalari bilan ta’minlash ishlarini samarali tashkil etish hamda ilg‘or va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqsadida, “OMNI SYSTEM” MCHJsi bilan 2025- yil 12- noyabrda tuzilgan SSS/C3.1/RFQ/49-son shartnomaga asosan (6-ilova) 2 dona DELL PowerEdge R760 va DELL PowerEdge R770 rusumli server qurilmalari xarid qilindi va tizimga joriy etildi.<br>Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi va Adliya vazirligiga 2025 yil 9-dekabr 01/3-17-02-97-son axborot xati kiritildi. |
| 15. | 7-ilova 7-band. Statistik kuzatuvlarni o‘tkazish jarayonlariga telefon aloqasi yordamida intervyu o‘tkazish (CATI – Computer Assisted Telephone Interviewing) imkonini beruvchi call-markaz faoliyatini yo‘lga qo‘yish. | 1. Call-markaz faoliyatini autsorsing xizmatidan foydalangan holda tashkil qilish hamda unga oliy ta’lim muassasalarining bitiruvchi kurs talabalarini jalb etish. | 2025-yil 1-sentyabrdan boshlab | M.Satimov, B.Imamov | **Bajarilgan.**<br>Call-markaz faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:<br>1) Milliy statistika qo‘mitasining 2025 yil 12-avgustda 79-son buyrug‘i tasdiqlandi;<br>2) Call-markaz faoliyatini yo‘ga qo‘yish bo‘yicha Tartib ishlab chiqildi;<br>2) So‘rovnoma (12 CATI) ishlab chiqildi; |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 3) Call-markazda faoliyat yuritish uchun Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining bitiruvchi kurs talabalari shartnoma asosida jalb etildi. |
| | | 2. Milliy statistika qo‘mitasiga uning so‘roviga asosan taqdim etiladigan telefon raqamlar bazalaridan foydalanishga ruxsat berish. | 2025-yil 1-sentyabrdan boshlab | M.Satimov, B.Imamov | **Bajarilgan.**<br>Raqamli texnologiyalar vazirligiga telefon raqamlar bazalaridan foydalanishga ruxsat berish yuzasidan so‘rov yuborildi.<br>O‘z navbatida, Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan telefon raqamlari bazasi to‘g‘risidagi ma’lumot taqdim etildi. |
| **Tarmoqlar statistikasini takomillashtirish yo‘nalishida** | | | | | |
| 16. | 7-ilova 8-band. Statistik ko‘rsatkichlar hisob-kitoblariga iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha institutsional birliklar tasniflagichini joriy etish. | 1. Xalqaro tavsiyalarga muvofiq iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha institutsional birliklar tasniflagichini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan xalqaro ekspertlarni jalb etish choralarini kor‘rish. | 2025-yil 27-iyun | D.Zakirov, U.Obidov, Sh.Odilov, O.Rustamovga | **Bajarilgan.**<br>2025-yilning 1-14-aprel sanalarida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan davlat institutsional birliklarini sektorlarga ajratish yuzasidan Xalqaro valyuta jamg‘armasining Davlat moliya statistikasi va Davlat sektori qarzi statistikasi bo‘yicha Emmanuel Ramathuba va Irina Dubina xalqaro ekspertlarini texnik yordam missiyasi tashkil etildi va davlat institutsional birliklarini sektorlarga ajratish yuzasidan tavsiyalar olindi.<br>2025-yilning 9-13-iyun sanalarida Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan Xalqaro valyuta jamg‘armasining Real sektor masalalari bo‘yicha maslaxatchisi Levan Gogoberishvili xalqaro ekspertini texnik yordam missiyasi tashkil etildi va |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | milliy hisoblar statistikasi hisoblashda foydalanish uchun iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha institutsional birliklar tasniflagichini ishlab chiqish va joriy etish yuzasidan tavsiyalar olindi.<br>Texnik yordam missiyalari doirasida ko‘rilgan masalalardan biri, Xalqaro tavsiyalarga muvofiq iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha institutsional birliklar tasniflagichi loyihasi ishlab chiqildi hamda korxona va tashkilotlarga iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha institutsional birliklar tasniflagichini joriy etish bo‘yicha bir qator ekspert tavsiyalari olindi. |
| | | 2. Korxona va tashkilotlarga iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha institutsional birliklar tasniflagichini joriy etish va unga asosan davlat moliyasi, bank, nomoliyaviy korxonalar statistikasi ko‘rsatkichlarini yuritish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish. | 2025-yil 25-dekabr | D.Zakirov, U.Obidov, Sh.Odilov, O.Rustamov | **Bajarilgan.**<br>Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan quyidagilar ma’lum qilinadi.<br>Xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha institutsional birliklar tasniflagichi (ISIBT) ishlab chiqilgan va tasdiqlangan bo‘lib, uni korxona va tashkilotlarga joriy etish maqsadida, 2025-yil davomida Xalqaro valyuta jamg‘armasining (XVJ) 2025-yil davomida bir qator missiyalari qabul qilindi. Jumladan:<br>1-11-aprel kunlari “Davlat moliyasi statistikasi va Davlat sektori qarzi statistikasi” bo‘yicha texnik missiyasi;<br>9-13-iyun va 13-24-oktyabr kunlari Milliy hisoblar bo‘yicha missiyalari;<br>10-14-noyabr kunlari “Davlat ulushi |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | mavjud moliyaviy korxonalarning davlat sektoriga tasniflash" mavzusida onlayn texnik missiyasi bo'lib o'tdi.<br>Barcha missiyalar yakuni bo'yicha, 2025-yil 1-oktabr holatiga respublikadagi faoliyat yurituvchi barcha korxona va tashkilotlarning ISIBTning asosiy 4 ta sektori (nomoliyaviy korporatsiyalar, moliyaviy korporatsiyalar, davlat boshqaruvi, uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar) asosida tasniflashga erishildi.<br>Kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritildi. |
| 17. | 7-ilova 9-band. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash natijalari asosida yalpi ichki mahsulotning tarmoq va hududlar kesimidagi dinamika qatorlarini shakllantirish. | 1. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash bo'yicha metodik yondashuvlardagi o'zgarishlarni inobatga olgan holda 2010–2017 yillar uchun YaIMning tarmoq va hududlar kesimidagi dinamika qatorlarini shakllantirish. | 2025-yil 26-sentabr | U.Obidov | **Bajarilgan.**<br>Kuzatilmaydigan iqtisodiyot bo'yicha qo'shilgan qiymatni baholash natijalari asosida 2010–2017-yillar bo'yicha yalpi ichki mahsulotning tarmoq va hududlar kesimidagi dinamik qatorlari shakllantirildi. |
| | | 2. Amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijalarini Xalqaro valyuta jamg'armasi eksperti bilan muhokama qilish. | 2025-yil 26-sentabr | U.Obidov | **Bajarilgan.**<br>Amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijalarini Xalqaro valyuta jamg'armasi eksperti bilan muhokama qilindi hamda rus tili va ingliz tillarida xulosalari olindi. |
| | | 3. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash natijalarini hisobga olgan holda yalpi ichki mahsulotning tarmoq va hududlar kesimidagi dinamika qatorlarini e'lon qilish. | 2025-yil 26-sentabr | U.Obidov | **Bajarilgan.**<br>Kuzatilmaydigan iqtisodiyot bo'yicha qo'shilgan qiymatni baholash natijalari asosida 2010–2017-yillar bo'yicha yalpi ichki mahsulotning tarmoq va hududlar kesimidagi dinamik qatorlari e'lon |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | qilindi.<br>7-ilova 9.1, 9.2 va 9.3 bandlarda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, Hisob palatasiga hamda Adliya vazirligiga (2025- yil 17-sentabr 01/3-03-07-79- sonli xat, 01/3-03-07-80-sonli xat 01/3-03-07-81-sonli xatlar ) ma'lumotlar taqdim etildi. |
| 18. | 7-ilova 10-band. "Resurslar va ulardan foydalanish" jadvallarini tuzish amaliyotini takomillashtirish. | 1. Xalqaro valyuta jamg'armasi eksperti tavsiyalari asosida korxonalar va tashkilotlarning mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibini kuzatish bo'yicha so'rovnoma shaklini ishlab chiqish. | 2025-yil 28-aprel | U.Obidov | **Bajarilgan.**<br>Milliy Statistika qo'mitasining 2025- yil 18-apreldagi 4-son Qarori bilan Korxonalar va tashkilotlarning mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibini kuzatish bo'yicha so'rovnoma ishlab chiqildi va tasdiqlandi. |
| | | 3. Hokim yordamchilari dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ekinlar ekilgan maydoni, yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarini xatlovdan o‘tkazish hamda ma’lumotlarni “Onlayn mahalla” axborot tizimiga kiritib borish. | Har chorakda | S.Xasanov | **Bajarilgan.** Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligida Vazir o‘rinbosari M.Jo‘rayev rahbarligida hokim yordamchilari bilan “Zoom” platformasi orqali yig‘ilish o‘tkazilgan. Yig‘ilishda Milliy statistika qo‘mitasi raisi o‘rinbosari A. Ikramov hamda Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhit boshqarmasi vakillari ishtirok etdi. Ushbu yig‘ilishda “Onlayn mahalla” axborot tizimidagi ma’lumotlar dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyati to‘g‘risidagi (4-dx) statistik hisobotidagi ko‘rsatkichlarga moslashtirilayotganligi qayd etildi. Shu bilan birga, hisobotdagi mavjud ko‘rsatkichlar bo‘yicha vazirlikning mas’ul xodimlariga va hokim yordamchilariga qo‘shimcha ma’lumotlar berildi. |
| | | 4. Hokim yordamchilari tomonidan “Onlayn mahalla” axborot tizimidagi ko‘rsatkichlar asosida dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyati to‘g‘risidagi statistik hisobotni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda statistika organlariga e-Stat axborot tizimi orqali taqdim etish. | Har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning 5-sanasidan kechiktirmagan holda | S.Xasanov | **Bajarilgan.** Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligida Vazir o‘rinbosari M.Jo‘rayev rahbarligida hokim yordamchilari bilan “Zoom” platformasi orqali yig‘ilish o‘tkazilgan. Yig‘ilishda Milliy statistika qo‘mitasi raisi o‘rinbosari A. Ikramov hamda Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhit boshqarmasi vakillari ishtirok etdi. Ushbu yig‘ilishda “Onlayn mahalla” axborot tizimidagi ma’lumotlar dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyati to‘g‘risidagi (4-dx) statistik hisobotidagi ko‘rsatkichlarga |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | moslashtirilayotganligi qayd etildi. Shu bilan birga, hisobotdagi mavjud ko‘rsatkichlar bo‘yicha vazirlikning mas’ul xodimlariga va hokim yordamchilariga qo‘shimcha ma’lumotlar berildi. |
| **Xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash yo‘nalishida (Nazorat – Transformatsiya bo‘yicha rais o‘rinbosari)** | | | | | |
| 35. | 7-ilova 27-band. Koreya statistika idorasi (Statistics Korea) bilan grant loyihani amalga oshirish. | Koreya statistika idorasi (Statistics Korea) bilan Milliy statistika qo‘mitasining statistik salohiyatini mustahkamlash bo‘yicha 2025–2028 yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan Koreya hukumati granti loyihasini boshlash uchun tegishli choralar ko‘rish. | 2025-yil dekabr | A.Sultanov | **Bajarilgan.**<br>2025 yilning 19-22-may kunlari KOSTATning 7 kishidan iborat delegatsiya vakillari ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazish va tajriba almashish maqsadida Milliy statistika qo‘mitasiga tashrif buyurdi.<br>Mazkur tashrif doirasida 20-may kuni Milliy statistika qo‘mitasi va Koreya statistika idorasi o‘rtasida 2025-2028-yillarda amalga oshiriladigan “Milliy statistika qo‘mitasining statistik salohiyatini mustahkamlash” grant loyihasiga start berildi.<br>Mazkur loyiha doirasida, joriy yilning 24-30-avgust kunlari Milliy statistika qo‘mitasining 5 nafar vakili Koreya statistika idorasida malaka oshirib qaytdi. |
| 36. | 7-ilova 28-band. Xalqaro qo‘llanma, tavsiya va standartlar elektron bazasini yaratish. | Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro statistika qo‘llanmalari, tavsiyalari va standartlari elektron bazasini yaratish va uslubiy materiallar kutubxonasiga (https://lib.stat.uz) joylashtirish. | 2025-yil oktabr | A.Sultanov | **Bajarilgan.**<br>2025-yil 24-oktabrdagi 01/3-06-03-629-son xati O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etildi. |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Milliy statistika qo'mitasi quyidagi ishlarni amalga oshirdi.<br>Joriy yilning mart-sentabr oylarida Milliy statisrika qo'mitasi tomonidan Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, BMTning Statistika departamenti, BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari va delegatsiyalari bilan uchrashuvlar o'tkazildi.<br>Mazkur uchrashuvlarda xalqaro tashkilotlar vakillari tomonidan Statistika sohasidagi xalqaro qo'llanmalar, tavsiyalar va standartlar Milliy statistika qo'mitasiga taqdim etildi. Bundan tashqari, shu yilning mart-oktabr oylarida Milliy statistika qo'mitasining 69 nafar xodimi xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan xalqaro konferensiyalar, forumlar va seminarlarda ishtirok etdi hamda qaytishda o'zlari bilan ko'plab xalqaro qo'llanmalar, tavsiyalar va standartlarni olib kelishdi. Ushbu to'plangan materiallar asosida Milly statistika qo'mitasida Xalqaro qo'llanmalar, tavsiyalar va standartlar bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini yaratish uchun poydevor yaratildi. Yig'ilgan barcha materiallar asosida xalqaro qo'llanmalar, tavsiyalar va standartlar elektron |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | bazasi yaratildi hamda ular uslubiy materiallar kutubxonasiga (https://lib.stat.uz ) joylashtirildi.<br>2025-yilda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro statistika qo'llanmalari, tavsiyalari va standartlari elektron bazasi yartilgan bo'lib, mazkur materiallar uslubiy materiallar kutubxonasi (https://lib.stat.uz)ga joylashtirildi. Mazkur uslubiy materiallarning elektron kutubxonasi, quidagi yo'nalishlardagi xalqaro uslubiy nizomlar va yo'riqnomalarning tizimlashtirilgan ro'yxatini o'z ichiga oladi:<br>– milliy xisoblar<br>– investitsiya va qurilish statistikasi<br>– narxlar<br>– sanoat<br>– tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi<br>– qishloq xo'jaligi va ekologiya<br>– aholi turmush darajasi va kuzatuvlar<br>– ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish<br>– demografiya va mehnat<br>– xizmatlar sohasi<br>– ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari tadbirkorlikni rivojlantirish<br>– k t y a d r |
| 37. | 7-ilova 29-band. Milliy statistika qo'mitasining xalqaro tashkilotlardagi faolligini kengaytirish. | Milliy statistika qo'mitasining xalqaro tashkilotlarda, xususan Osiyo va Tinch okeani mintaqasi uchun | 2025-2026 yillar | A.Sultanov | **Bajarilgan.**<br>**BMT Osiyo va Tinch okeani uchun ijtimoiy va iqtisodiy** |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESKATO) Statistika byurosida, Yevropa statistiklar konferensiyasi Byurosida va Islom hamkorlik tashkiloti Statistika qo‘mitasi Byurosida samarali ishtirok etishini ta’minlash. | | | **komissiyasi BMTOTOIIK** beshta mintaqaviy komissiyalari ichida geografik qamrovi va aholi soni bo‘yicha eng yirik xalqaro tashkilot hisoblanadi. BMT Osiyo va Tinch okeani uchun ijtimoiy va iqtisodiy komissiyasi tomonidan Osiyo va Tinch okeani mintaqasi davlatlari milliy statistika tizimi uchun texnik ko‘mak berib kelmoqda.<br>Milliy statistika qo‘mitasi Raisi 2022-yilda hamda 2024-yilda BMTOTOIIK statistika qo‘mitasi byurosining tarkibi raisi o‘rinbosari sifatida 2-marta saylandi. Milliy statistika qo‘mitasi 2022-yildan boshlab BMTOTOIIK tomonidan tashkil etilgan barcha yuqori darajada tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi Raisi 2022-yilda hamda 2024-yilda BMTOTOIIK statistika qo‘mitasi byurosining tarkibi raisi o‘rinbosari sifatida 2-marta saylandi. Milliy statistika qo‘mitasi 2022-yildan boshlab BMTOTOIIK tomonidan tashkil etilgan barcha yuqori darajada tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda.<br>2024-yil fevralda Milliy statistika qo‘mitasi Raisi 2024-2026-yillar uchun **Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (YEIK)** va Yevropa |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | statistiklari konferensiyasi (YESK)ning Byurosi a’zoligiga saylangan.<br>Ma’lumot uchun: Yevropa statistiklari konferensiyasi (ESK) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (BMT YEIK) yordamchi organi hisoblanadi.<br>BMT YEIK muhimligi bo‘yicha rasmiy statistika uchun jahon forumi - BMT Statistika komissiyasidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining barcha 56 ta mamlakatlari milliy statistika idoralarining rahbarlari ESK a’zolari bo‘lib hisoblanadi. BMT YEIK Polsha, Albaniya, Kanada, Irlandiya, Meksika, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Armaniston va O‘zbekiston singari a’zo mamlakatlardan iborat.<br>Shu bilan birda, O‘zbekiston YEIKning Byurosi a’zo davlatlar sifatida konsepsiyalar va ta’riflarning mutanosibligini ta’minlash va milliy statistika idoralari zimmasiga tushadigan yukni minimallashtirish uchun BMT YEIK mintaqasida xalqaro tashkilotlarning statistik faoliyatini yaqindan muvofiqlashtirishga ko‘maklashadi, BMT YEIK mintaqasida statistik |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | standartlar, modellar va asoslarni faol muhokama qiladi va qabul qiladi.<br>**Islom hamkorlik tashkiloti (IHT)** Birlashgan Millatlar Tashkilotidan keyingi ikkinchi yirik hukumatlararo tashkilot bo‘lib, tarkibiga 57 a’zo davlatlar kiradi va to‘rt qit’ani qamrab oladi.<br>Reglament bo‘yicha Rais lavozimi IHT davlatlarining uchta rasmiy guruhi (Afrika guruhi, Arab guruhi va Osiyo guruhi) o‘rtasida navbat bilan saylanadi. Komissiya raisning ikki o‘rinbosarini raislik qiluvchi mamlakatdan tashqari boshqa ikki guruh mamlakatlaridan saylaydi.<br>O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi raisi 2020-2021-yillarda Islom Hamkorlik Tashkiloti Statisika Komissiyasi Byurosi rahbari o‘rinbosari bo‘lgan (2020-yil 28 sentabrdagi IHT Statistika qomitasining 9-sessiyasida e’lon qilingan).<br>2020-yildan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi hamda Islom mamlakatlari uchun statistika, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar va kadrlar tayyorlash markazi (SESRIC) o‘rtasida tuzilgan Memorandum doirasida Milliy statistika qo‘mitasi mutaxassislarining statistik salohiyatini mustahkamlash maqsadida o’quv seminarlar va tajriba |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | lishishlar yo‘lga qo‘yildi. |
| 38. | 7-ilova 30-band. Xalqaro mehnat tashkilotiga (XMT) ma’lumotlarni taqdim etish. | Xalqaro mehnat tashkiloti talablari asosida “Xalqaro mehnat statistikasi” axborot tizimiga O‘zbekistonda ishchi kuchi kuzatuvlari ma’lumotlarini o‘z muddatida va to‘liq taqdim etib borish. | Yilda bir marotaba | A.Sultanov, Z.Yuldoshev | **Bajarilmoqda.**<br>Milliy statistika qo‘mitasi mazkur band ijrosini belgilangan muddatlarda bajarilishini ta‘minlash maqsadida, Xalqaro mehnat tashkilotining Xalqaro mehnat statistikasi axborot tizimi (ILOSTAT) uchun tegishli ma’lumotlarni taqdim etdi.<br>Xalqaro mehnat tashkiloti Statistika departamentiga yuborilgan. (2025-yil 27-iyundahi 01/3-06-06-351-son xat).<br>Shuningdek, O‘zbekistonda ishchi kuchi kuzatuvlari ma’lumotlarini Xalqaro mehnat tashkilotiga taqdim etish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga tegishli murojat yuborilgan. (27.01.2026-yildagi 01/3-06-04-26-son xat). |
| 39. | 7-ilova 31-band. Xalqaro valyuta jamg‘armasining (XVJ) axborot tizimlarida mamlakatning asosiy makroiqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarini aks ettirishni ta’minlash. | 1. Xalqaro valyuta jamg‘armasining Kengaytirilgan ma’lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi (k-MTUT)dan Ma’lumotlarni tarqatishning maxsus tizimi (MTMT)ga o‘tish. | 2025-yil 25-dekabr | A.Sultanov | **Bajarilgan.**<br>Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan rasmiy statistika ko‘rsatkichlarini xalqaro valyuta jamg‘armasining MTMT talablariga moslashtirish maqsadida 2025-yilda XVJ exspertlari jalb qilindi (tegishli xatlar ilova qilinadi):<br>- 9-13-iyun kunlari XVJ Real sektor eksperti Levan Gogoberishvili boshchiligidagi missiya;<br>- 24-iyun-4-iyul kunlari XVJ narxlar sektori eksperti Brayan Graf boshchiligidagi missiya;<br>- 13-24-oktabr kunalri XVJ Real |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | sektor eksperti Levan Gogoberishvili boshchiligidagi missiya;<br>- 3-17 aprel va 17-25-noyabr kunlari O‘zbekistom Respublikasiga XVJ bosh iqtisodchisi Yasser Abdih boshchiligidagi missiyalar.<br>Mazkur XVJ texnik ko‘maklari va expertlari yordamida Milliy statistika qo'mitasi tomonidan e’lon qilinadigan makroiqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar takomillashtirildi va MTMT talablariga moslashtirildi.<br>Shuningdek, Milliy statistika qo‘mitasi har oyda xalqaro valyuta jamg'armasi MTMT talablari asosida milliy hisoblar (YAIM), iste’mol narxlari indeksi, tovarlar savdosi, ishlab chiqarish indeksi, mehnat bozori, ishlab chiqaruvchi narxlari indeksi, aholi soni, ijtimoiy-demografik ko‘rsatkichlar va tovarlar tashqi savdosi bo‘yicha makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar xalqaro valyuta jamg‘armasi ma’lumotlar tarqatish tizimiga integrasiya qilingan “National Summary Data Page (NSDP)-Uzbekistan” (https://nsdp.stat.uz/) platformasida e’lon qilib borilmoqda. |
| | | 2. Xalqaro valyuta jamg‘armasining Xalqaro moliya statistikasi sahifasida talab etiladigan asosiy makroiqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy statistika ko‘rsatkichlarining e’lon qilib borilishini ta’minlash. | Doimiy | A.Sultanov | **Bajarilgan.**<br>**Xalqaro moliya statistikasi** platformasida e’lon qilinadigan statistik ma’lumotlar **XVJ Statistika Departamenti** (**STA**) tomonidan yaratilgan **Integratsiyalashgan yig‘ish tizimi** (**Integrated Collection** |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | System - ICS) mavjud bo‘lib, bu mamlakatlar ma'lumot yetkazib beruvchilari (muxbirlari) foydalanishi uchun ishlab chiqilgan vebga asoslangan ma’lumotlar hisoboti tizimi. ICS ma’lumotlar muxbirlariga xavfsiz Internet muhitida XVJga ma’lumotlarni jo‘natishning samarali usulini taqdim etadi.<br>Milliy statistika qo‘mitasi mazkur platforma orqali doimiy ravishda **YaIM**, **narx**, **mehnat**, **sanoat, aholi** va **savdo** ko‘rsatkichlarini taqdim etib boradi.<br>Shuningdek, **2018**-yil may oyida O‘zbekiston **k-MTUT** (kengaytirilgan Ma’lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi)ni joriy qildi va SDMX asosida Milliy ma’lumotlar jamlangan sahifasi (**NSDP**)ni (https://nsdp.stat.uz/) ishga tushirdi. Bu IMF ma’lumotlar ekotizimiga, jumladan **IFS**ga, milliy ma’lumotlarni uzatish uchun asosiy kirish nuqtasidan biriga aylandi.<br>1) Mehnat Kuchi Statistikasi (LS) - https://legacydata.imf.org/regular.aspx?key=61545849;<br>2) Iste’mol Narxlari Indeksi (CPI) - |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | https://legacydata.imf.org/regular.aspx?key=61545849; 3) Milliy Iqtisodiy Hisoblar (NEA), Choraklik Ma’lumotlar- https://legacydata.imf.org/regular.aspx?key=61545852; 4) Milliy Iqtisodiy Hisoblar (NEA), Yillik Ma’lumotlar- https://legacydata.imf.org/regular.aspx?key=61545852 5) Ishlab Chiqarish Indekslari (avval IPI) - https://legacydata.imf.org/regular.aspx?key=61545849; 6) Ishlab Chiqaruvchi Narxlari Indeksi (PPI) - https://legacydata.imf.org/regular.aspx?key=61545849 Xalqaro Savdo Tovarlari (ITG) - https://legacydata.imf.org/regular.aspx?key=61545859. |
| 40. | 7-ilova 32-band. Iqtisodiy, investitsiya va energetika komplekslarida amalga oshirilayotgan loyihalar natijadorligini baholash ko‘rsatkichlarini shakllantirish. | Iqtisodiy, investitsiya va energetika komplekslarida amalga oshirilayotgan loyihalar natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari va ularni shakllantirish tartibi loyihasini ishlab chiqish. | 2025-yil iyun | M.Jomolov, X.Jurayev | **Bajarilgan.** Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2025-yil 29-mayda 02/40-11961-son murojaati bilan Vazirlar Mahkamasining “Iqtisodiy, investitsion va energetik komplekslarda amalga oshirilayotgan loyihalarning samaradorligi va natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasi Milliy statistika qo‘mitasiga kiritildi. |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | |
| **Ochiq ma’lumotlar portalini takomillashtirish yo‘nalishida (Nazorat – Z.Ziyayev)** | | | | | |
| 41. | 7-ilova 33-band. Ochiq ma’lumotlar portali faoliyatida geofazoviy ma’lumotlarni joylashtirish. | 1. Ochiq ma’lumotlar portalida geofazoviy ma’lumotlarni joylashtirish funksiyasini xalqaro tajribani o‘rgangan holda yanada takomillashtirish. | 2025-yil sentabr | X.Iskandarov | **Bajarilgan.**<br>Qo‘mitaning 2025-yil 17-sentabrdagi 01/3-19-04-160-son xati orqali qaror ijrosi yuzasidan tegishli ma’lumotlar Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Adliya vazirligiga taqdim etildi.<br>1.Joriy yilning 29-30-iyul kunlari O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining (YeXHT) O‘zbekistondagi loyihalari koordinatori hamda Xalqaro Ochiq ma’lumotlar hartiyasi (Open Data Charter – ODC) bilan hamkorligida sohadagi xalqaro tajribani o‘rganish va amaliyotga joriy etish maqsadida, Toshkent viloyati Parkent tumanida ochiq ma’lumotlar bo‘yicha ikki kunlik seminar-trening tashkil etildi.<br>Mazkur seminarda ODC eksperti – Renato Berrino, shuningdek, respublika miqyosidagi vazirlik va idoralarning ma’muriy ma’lumotlar bilan ishlovchi mas’ul xodimlari ishtirok etdi. Seminarda, sohaga tegishli xalqaro tajriba o‘rganildi, xususan, Alohida blok geofazoviy ma’lumotlarga bag‘ishlandi. Ishtirokchilarga geofazoviy |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | ma'lumotlar tushunchasi, ularning turlari (kartografik materiallar, koordinata ma'lumotlari), shuningdek, bunday ma'lumotlarni ochiq statistik ma'lumotlar bilan integratsiya qilish imkoniyatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali(keyingi o'rinlarda –Portal)ga joriy etish masalalari muhokama qilindi. https://data.egov.uz/news/toshkent-viloyatida-chiq-malumotlar-boyicha-xalqa<br>2. Joriy yilning 20-22-avgust kunlari Milliy statistika qo'mitasi tomonidan Jahon banki ko'magida davlat organlarining statistik va ma'muriy ma'lumotlarini shakllantirishga mas'ul xodimlari uchun uch kunlik maxsus o'quv kursi tashkil etildi. O'quv kursida ma'muriy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalangan holda rasmiy statistik ma'lumotlarni shakllantirish bilan shug'ullanuvchi Milliy statistika qo'mitasi hamda boshqa vazirlik va idoralar mutaxassislari ishtirok etdi. Tadbirga BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE)ning statistika bo'yicha mintaqaviy maslahatchisi Stiven Veyl ekspert sifatida jalb etildi. O'quv kursida ma'muriy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | ulardan foydalangan holda rasmiy statistik ma'lumotlarni shakllantirish bilan shug'ullanuvchi Milliy statistika qo'mitasi hamda boshqa vazirlik va idoralar mutaxassislari ishtirok etdi. https://data.egov.uz/news/milliy-statistika-qomitasi-tomonidan-xalqaro-ekspe<br>3. Xalqaro ilg'or tajribalar o'rganilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan Portalga geofazoviy ma'lumotlarni tashkilot avtori tomonidan sodda va xatoliklarsiz joylash imkonini beruvchi, shu bilan birga, foydalanuvchilar uchun manzil ma'lumotlarini qulayligini oshirgan holda takomillashtirildi. |
| | | 2. Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlarni joylashtiruvchi davlat organlari va tashkilotlari mas'ul xodimlarining xalqaro tajriba asosida geofazoviy ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha malakasini oshirish. | 2025 yil noyabr | X.Iskandarov | **Bajarilgan.**<br>Joriy yilning 29-30-iyul kunlari O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining (YeXHT) O'zbekistondagi loyihalari koordinatori hamda Xalqaro Ochiq ma'lumotlar hartiyasi (Open Data Charter – ODC) bilan hamkorligida sohadagi xalqaro tajribani o'rganish va amaliyotga joriy etish maqsadida, Toshkent viloyati Parkent tumanida ochiq ma'lumotlar bo'yicha ikki kunlik seminar-trening tashkil etildi.<br>Mazkur seminarda ODC eksperti – Renato Berrino, shuningdek, respublika |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | miqyosidagi vazirlik va idoralarning ma’muriy ma’lumotlar bilan ishlovchi mas’ul xodimlari ishtirok etdi. Seminarda, sohaga tegishli xalqaro tajriba o‘rganildi, xususan, Alohida blok geofazoviy ma’lumotlarga bag‘ishlandi. Ishtirokchilarga geofazoviy ma’lumotlar tushunchasi, ularning turlari (kartografik materiallar, koordinata ma’lumotlari), shuningdek, bunday ma’lumotlarni ochiq statistik ma’lumotlar bilan integratsiya qilish imkoniyatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portali(keyingi o‘rinlarda – Portal)ga joriy etish masalalari muhokama qilindi.<br>https://data.egov.uz/news/toshkent-viloyatida-ochiq-malumotlar-boyicha-xalqa<br>2. Joriy yilning 20-22-avgust kunlari Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan Jahon banki ko‘magida davlat organlarining statistik va ma’muriy ma’lumotlarini shakllantirishga mas’ul xodimlari uchun uch kunlik maxsus o‘quv kursi tashkil etildi. O‘quv kursida ma’muriy ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalangan holda rasmiy statistik ma’lumotlarni shakllantirish bilan shug‘ullanuvchi Milliy statistika qo‘mitasi hamda boshqa vazirlik va idoralar mutaxassislari ishtirok etdi. Tadbirga BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE)ning statistika bo‘yicha mintaqaviy maslahatchisi Stiven |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Veyl ekspert sifatida jalb etildi. O‘quv kursida ma’muriy ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalangan holda rasmiy statistik ma’lumotlarni shakllantirish bilan shug‘ullanuvchi Milliy statistika qo‘mitasi hamda boshqa vazirlik va idoralar mutaxassislari ishtirok etdi. https://data.egov.uz/news/milliy-statistika-qomitasi-tomonidan-xalqaro-ekspe<br>3. Xalqaro ilg‘or tajribalar o‘rganilgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan Portalga geofazoviy ma’lumotlarni tashkilot avtori tomonidan sodda va xatoliklarsiz joylash imkonini beruvchi, shu bilan birga, foydalanuvchilar uchun manzil ma’lumotlarini qulayligini oshirgan holda takomillashtirildi.<br>Shuningdek, 38 ta vazirlik idoralardan 2025-yil davomida geopozitsiya (manzil ma’lumotlari)ga bog‘langan ochiq ma’lumotlar to‘plamlarini ko‘paytirish, qo‘shimcha ma’lumotlarni shakllantirish hamda ularni O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portaliga (data.egov.uz) joylashtirib muntazam ravishda yangilab borilayotgan geofazoviy ma’lumotlar to‘plamlari soni 68 taga boyitilganligi yuzasidan xatlar yig‘ib olindi |
| | | 3. Ochiq ma’lumotlar portalida geofazoviy ma’lumotlar sonini oshirish bo‘yicha choralarni ko‘rish. | 2025-yil dekabr | X.Iskandarov | **Bajarilgan.**<br>2025-yil 24-fevraldagi PQ-75-son qarori 7-ilova 33-bandi ijrosi yuzasidan, **162 ta vazirlik va** |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | **idoralar** tomonidan Ochiq ma’lumotlar portaliga (data.egov.uz) joylashtirilgan geopozitsiya (manzil ma’lumotlari)ga bog‘langan ochiq ma’lumotlar to‘plamlari soni **323 taga yetkazildi**, ushbu ko‘rsatgich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **68 taga ko‘paygan**. Xususan, 2024-yilda Ochiq ma’lumotlar portaliga joylashtirilgan geopozitsiyaga bog‘langan ochiq ma’lumotlar to‘plamlari soni 262 tani tashkil etgani to‘g‘risidagi geoma‘lumotlar skreenshotlar 01/3-19-04-202-son xatiga ilova qilindi. |
| 42. | 7-ilova 34-band. Ochiq ma’lumotlar sohasidagi “Open Data Inventory” va “Gender Data Compass” xalqaro reytinglarda O‘zbekiston o‘rnini yaxshilash. | 1. Ochiq ma’lumotlar sohasidagi “Open Data Inventory” va “Gender Data Compass” xalqaro reytinglarining yangilangan baholash tizimini o‘rganish. | 2025-yil 28-may | X.Iskandarov | **Bajarilgan.**<br>2025-yilning 4–7- mart kunlari Amerika Qo‘shma Shtatlarining Nyu-York shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh qarorgohida Statistika komissiyasining navbatdagi 56-sessiyasi o‘tkazildi. Mazkur tadbirda doirasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi delegatsiyasi Ochiq ma’lumotlar sohasidagi “Open Data Inventory” va “Gender Data Compass” xalqaro reytinglarini yurituvchi Open Data Watch xalqaro tashkilot direktori Sheyda Badi bilan uchrashuv o‘tkazdi.<br>Uchrashuv davomida Milliy statistika qo‘mitasi xodimlarini “Open Data Inventory” va “Gender Data Compass” xalqaro reytinglarining yangilangan |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | baholash tizimini o‘rganish bo‘yicha yaqin hamkorlik qilishga kelishib olindi.<br>Joriy yilda O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar bo‘yicha xalqaro Open Data Inventory (ODIN) reytingida 2024-yil natijalariga ko‘ra, 198 ta mamlakat orasida 83 ball bilan 12-o‘ringa ko‘tarildi hamda Markaziy Osiyoda 1-o‘rinni saqlab qoldi. Open Data Inventory (ODIN) – ochiq ma’lumotlar siyosatini ilgari surish, rasmiy statistika kamchiliklarini aniqlash, milliy statistika organlari bilan ma’lumotlardan foydalanuvchilar o‘rtasida muloqotni yaxshilash va ochiqlikni baholaydi. Mazkur reytingda O‘zbekiston 2023-yil yakuniga nisbatan (195 ta mamlakat orasida 70 ball bilan dunyoda 30-o‘rinni egallagan) 18 ta pog‘onaga ko‘tarilgan.<br>2024-yil natijalariga ko‘ra, “Gender Data Compass” xalqaro reytingida 185 ta mamlakat ichida O‘zbekiston 56-o‘rin hamda Markaziy Osiyoda 3-o‘rinni egallab kelmoqda.<br>Joriy yilning 22-may kuni Open data watch tashkilotining Boshqaruv direktrori Shayda Badie nomiga 01/3-06-06-284-sonli xat yuborildi. Unda Gender Data Compass reytingida ham ballarimizni va mamlakatimiz o‘rnini yaxshilash maqsadida mavjud statistik ma’lumotlarni va tegishli havolalarni ilovaga muvofiq yangilash uchun |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | yuborildi. Shuningdek, Milliy statistika qo'mitasining tegishli xodimlariga Gender Data Compass reytingi metodologiyasini tushuntirish hamda ularning bu boradagi malakasini oshirishda amaliy yordam ko'rsatish maqsadida onlayn uchrashuvlar tashkil etish so'ralgan. |
| | | 2. "Open Data Inventory" va "Gender Data Compass" xalqaro reytinglarining yangilangan baholash tizimi asosida Ochiq ma'lumotlar portalida va Milliy statistika qo'mitasining "SIAT" axborot tizimida ma'lumotlarni joylashtirish. | 2025-yil 28-noyabr | X.Iskandarov | **Bajarilgan**<br>Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida 2025-yil 4-7-mart kunlari Milliy statistika qo'mitasi delegatsiyasi BMT Statistika komissiyasining 56-sessiyasida ishtirok etdi. Tadbir doirasida, Statistika qomitasi delegatsiyasi "Open Data Inventory" va "Gender Data Compass" xalqaro reytinglarini yuritadigan "Open Data Watch" tashkiloti rahbari Shaida Badiee va uning mutaxassislari bilan uchrashdi. Uchrashuvda "Open Data Inventory" va "Gender Data Compass" xalqaro reytinglarining yangilangan baholash tizimlari o'rganildi (https://data.egov.uz/news/milliy-statistika-qomitasi-delegatsiyasi-bmt-stati).<br>O'rganish asosida Open Data Inventory (ODIN) reytingida aniqlangan kamchiliklar bartaraf etildi va amalga oshirilgan ushbu ishlar natijasida, 2025-yil 29-aprelda e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar bo'yicha xalqaro Open Data Inventory (ODIN) reytingida O'zbekiston Respublikasi 198 ta mamlakat orasida 83 |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | ball bilan 12-o‘ringa ko‘tarildi hamda Markaziy Osiyoda 1-o‘rinda qoldi (https://odin.opendatawatch.com/Report/countryProfileUpdated/UZB?year=2024)<br>Shuningdek, “Gender Data Compass” reytingida mamlakatimiz o‘rnini yanada yaxshilash maqsadida, “Open Data Watch” tashkilotiga reytingning yangilangan baholash tizimi asosida ishlab chiqilgan ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portali data.egov.uz jaylashtirilganligi haqida 2025-yil 22-maydagi 01/3-06-06-284-son rasmiy xat yuborildi.<br>“Gender Data Compass”reytingida mamlakatimiz o‘rnini yanada yaxshilash maqsadida, “Open Data Watch” tashkilotiga reytingning yangilangan baholash tizimi asosida ishlab chiqilgan ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portali data.egov.uz jaylashtirilganligi haqidagi ma‘lumot 01/3-19-04-197-son xati orqali yuborildi. |
| | | 3. Ochiq ma’lumotlar portalida va Milliy statistika qo‘mitasining “SIAT” axborot tizimida joylashtirilgan ma’lumotlarni “Open Data Inventory” va “Gender Data Compass” reytinglarini yuritadigan “Open Data Watch” xalqaro tashkilotiga taqdim etish. | 2025-yil 25-dekabr | X.Iskandarov | **Bajarilgan**<br>Mazkur topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida 2025-yil 4-7-mart kunlari Milliy statistika qo‘mitasi delegatsiyasi BMT Statistika komissiyasining 56-sessiyasida ishtirok etdi. Tadbir doirasida, Statistika qomitasi delegatsiyasi “Open Data Inventory” va “Gender Data Compass” xalqaro reytinglarini yuritadigan “Open Data Watch” tashkiloti rahbari Shaida Badiee va uning |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | mutaxassislari bilan uchrashdi. Uchrashuvda "Open Data Inventory" va "Gender Data Compass" xalqaro reytinglarining yangilangan baholash tizimlari o'rganildi (https://data.egov.uz/news/milliy-statistika-qomitasi-delegatsiyasi-bmt-stati).<br>O'rganish asosida Open Data Inventory (ODIN) reytingida aniqlangan kamchiliklar bartaraf etildi va amalga oshirilgan ushbu ishlar natijasida, 2025-yil 29-aprelda e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar bo'yicha xalqaro Open Data Inventory (ODIN) reytingida O'zbekiston Respublikasi 198 ta mamlakat orasida 83 ball bilan 12-o'ringa ko'tarildi hamda Markaziy Osiyoda 1-o'rinda qoldi<br>(https://odin.opendatawatch.com/Report/countryProfileUpdated/UZB?year=2024)<br>Shuningdek, "Gender Data Compass" reytingida mamlakatimiz o'rnini yanada yaxshilash maqsadida, "Open Data Watch" tashkilotiga reytingning yangilangan baholash tizimi asosida ishlab chiqilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali data.egov.uz jaylashtirilganligi haqida 2025-yil 22-maydagi 01/3-06-06-284-son rasmiy xat yuborildi.<br>"Gender Data Compass"reytingida mamlakatimiz o'rnini yanada yaxshilash maqsadida, "Open Data Watch" tashkilotiga reytingning yangilangan baholash tizimi asosida ishlab chiqilgan |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portali data.egov.uz jaylashtirilganligi haqidagi ma‘lumot 01/3-19-04-197-son xati orqali yuborildi. |
| **Boshqa yo‘nalishlarda (Nazorat - Transformatsiya bo‘yicha rais o‘rinbosari)** | | | | | |
| 43. | 7-ilova 35-band. Tizim faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish. | 1. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga statistika ma’lumotlariga yoki statistika faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan (hisobot taqdim etish majburiyati, ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash bilan bog‘liq) normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlayotgan har qanday tashkilot ularni Milliy statistika qo‘mitasi bilan dastlabki kelishishi shartligiga oid norma kiritish. | 2025-yil 25-dekabr | D.Zakirov, V.To‘xtayev | **Bajarilgan.**<br>Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan amaldagi “Rasmiy statistika to‘g‘risidagi” Qonunga tegishli normalarni kiritish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” Qonun loyihasi tayyorlangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan mos ravishda qabul qilingan va ma’qullangan.<br>Mazkur Qonun loyihasining 6-moddasi 11-bandi bilan “Rasmiy statistika to‘g‘risidagi” Qonunning 35-moddasining oltinchi qismi quyidagi tahrir bilan almashtirilishi nazarda tutilgan:<br>“Rasmiy statistikani tayyorlovchilarning statistika ma’lumotlariga yoki statistika ma’lumotlarini tayyorlash faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari vakolatli davlat organi bilan kelishilishi shart.<br>Ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilar o‘zlari yig‘adigan |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | ma’lumotlarning mazmuni, uslubiyati, tasniflagichi va ro‘yxatini, shuningdek, ularni yig‘ish bilan bog‘liq hisobot shakllari va axborot tizimlarini, shu jumladan ularni o‘zgartirish tartibini vakolatli davlat organi bilan majburiy tartibda hamda rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan ixtiyoriylik asosida kelishib oladi”. |
| | | 2. Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan ma’lumotlarni taqdim etish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun undiriladigan amaldagi yig‘im miqdorini bozor narxlaridan kelib chiqqan holda qayta belgilash, shuningdek, taqdim etish muddatlarini “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq qayta ko‘rib chiqish va tegishli tuzatishlar kiritish. | 2025-yil 25-dekabr | J.Shirinov, O.Rustamov, Sh.Odilov | **Bajarilgan.**<br>O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ma’lumotlarni taqdim etish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishni takomillashtirish munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-noyabrdagi 612-son qarori bilan tasdiqlangan Jismoniy va yuridik shaxslarga ma’lumotnomalar berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning yagona ma’muriy reglamentiga 22-23-ilovalarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi (ID-8094) ishlab chiqildi hamda tegishli tartibda joriy yilning 23-dekbarda loyiha.adliya.uz portali orqali O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborildi (2025-yil 23-dekabrdagi 01/1-22-04-158-son). |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| 44. | 7-ilova 36-band. Mavjud resurslardan foydalangan holda statistika organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash | 1. Hududiy statistika organlari balansidagi tuman (shahar) bo‘limlari binolarini belgilangan tartibda sotish choralarini ko‘rish hamda sotishdan tushgan mablag‘larni statistika organlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirish. | 2025-yil davomida | J.Shirinov | **Bajarilgan.**<br>Hududlardagi 28 ta tuman (shahar) statistika bo‘limlarining binolalari dalolatnomalarga asosan O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy boshqarmalari balansiga o‘tkazib berildi.<br>O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025 yil 25 dekabrdagi xatiga asosan, ushbu binolarning 16 tasi sotilgan, qolgan 12 tasi savdoga tayyorlash va savdo jarayonida.<br>Barcha hududiy statistika organlarining balansidagi tuman (shahar) bo‘limlari binolarini belgilangan tartibda sotish choralarini ko‘rish hamda sotishdan tushgan mablag’larni statistika organlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirish bo‘yicha ishlar nazoratga olingan. |
| | | 2. Hududiy statistika organlarini joylashtirish uchun tuman va shahar hokimliklari binosidan zarur xonalarni ajratish hamda ijara qiymatini “nol” stavkada belgilash. | Doimiy | J.Shirinov | **Bajarilgan.**<br>O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga Qo‘mitaning 2025 yil 11-martdagi 01/1-25-11-23-sonli xati hamda Barcha hududiy statistika boshqarmalariga 2025 yil 5-martdagi №01/1-25-11-21-sonli xatlarga asosan Barcha hududiy statistika organlari qisqa muddatlarda barcha tuman (shahar) statistika bo‘limlarini tegishli hududdagi hokimliklar binosidan zarur xonalarni ajratish hamda ijara qiymatini (nol) |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | stavkada joylashtirish choralarini ko‘rish bo‘yicha topshiriq xati yuborilgan. |
| 45. | 7-ilova 37-band. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning so‘rovlari bo‘yicha ma’lumotlar bankini yaratish. | 1. 2022–2024 yillar uchun foydalanuvchilardan kelib tushgan so‘rovlar ma’lumotlar bankini shakllantirish va tahlil qilish. | 2025-yil 26-sentabr | O.Rustamov | **Bajarilgan.** Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan 2022-2024-yillar uchun barcha turdagi foydalanuvchilardan (O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan vazirliklar, idoralar, tashkilotlar hamda jismoniy va yuridik shaxslar va b.) kelib tushgan so‘rovlarga asosan foydalanuvchilarga taqdim etilgan rasmiy statistik ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlar banki shakllantirildi va tahliliy ma’lumotlar tayyorlandi. Topshiriq ijrosi yuzasidan tahliliy ma’lumotlar qo‘mitaning 2025-yil 21-avgustdagi 01/3-02-06-402-sonli axborot xati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga, Vazirlar Mahkamasiga, Adliya vazirligiga taqdim etildi. |
| | | 2. Tahlillar asosida foydalanuvchilarning ehtiyoji yuqori bo‘lgan ma’lumotlarni keng e’lon qilib borish. | Doimiy | O.Rustamov | **Bajarilgan.** O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan 2022-2024-yillar uchun foydalanuvchilardan kelib tushgan so‘rovlar bo‘yicha ma’lumotlar banki shakllantirildi va tahliliy ishlar olib borildi. Tahlillar asosida foydalanuvchi-larning extiyoji yuqori bo‘lgan ma’lumotlar aniqlanib, mazkur ma’lumotlarni keng e’lon qilib borish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Topshiriq ijrosi yuzasidan tegishli ma’lumotlar qo‘mitaning 2025-yil 18- |

| T/r | Qaror bandlari | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | sentabrdagi 01/3-02-06-430-sonli axborot xati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga, Vazirlar Mahkamasiga, Adliya vazirligiga taqdim etildi. |